

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Askiya san’atining noyob namunalarini to‘plash va mobil ilovasini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Askiya san’ati tarixi, nazariyasi va ijrochilik amaliyoti haqida mavjud manbalar yig‘iladi va saralanadi; - Farg‘ona askiyasi ijrosi, payrovlari haqida asosli ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi; - o‘zbek askiya san’ati darg‘alari hayoti, faoliyati va ijro namunalarining tarixi va bugungi holatini aks ettiruvchi audio-video materiallar jamlanadi; - kinofotomono arxividan askiya san’atining noyob namunalari olinib, tizimlashtiriladi; - yig‘ilgan manbalar va ma’lumotlar asosida mobil ilova yaratiladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Madaniyat vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Madaniyat vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Madaniyat vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.